

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI

“Tasdiqlayman”
O‘ZDK rektori



_____ 2021 yil

“Kelishildi”
O‘zbekiston Respublikasi
Madaniyat vazirligi



_____ 2021 yil

“Kelishildi”
O‘zbekiston Respublikasi
Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi

_____ 2021 yil

**IJODIY (KASBIY) IMTIHONLAR DASTURI
VA BAHOLASH MEZONI**

**5150702 – Cholg‘u ijrochiligi: torli cholg‘ular (skripka, alt),
5150703 – Cholg‘u ijrochiligi: torli cholg‘ular (violonchel, kontrabass)
ta‘lim yo‘nalishlari uchun**

Toshkent – 2021 yil

Kirish

“5150702 – Cholg‘u ijrochiligi: torli cholg‘ular (skripka, alt),” “5150703 – Cholg‘u ijrochiligi: torli cholg‘ular (violonchel, contrabass)” ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha ijodiy imtihon dasturi abituriyentlarning amaliy ko‘nikma va malakalarini aniqlash uchun mo‘ljallangan. Ushbu ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha hujjat topshirgan abituriyentlar musiqiy asar yozish borasida ish bajaradilar. Bajariladigan vazifalar tasdiqlangan mezon asosida baholanadi.

Fanning maqsadi va vazifalari

“5150702 – Cholg‘u ijrochiligi: torli cholg‘ular (skripka, alt),” “5150703 – Cholg‘u ijrochiligi: torli cholg‘ular (violonchel, contrabass)” ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha ijodiy imtihon dasturi abituriyentlarning amaliy ijrochilik ko‘nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

Abituriyentlarning umumiy tayyorgarlik darajasi, qobiliyati, iqtidori, bilimi, dunyoqarashi va aql zakovati hisobga olingan tarzda me‘yoriy dasturni o‘zlashtirish ustida ish olib boriladi.

“Torli cholg‘ular ijrochiligi” fanini o‘zlashtirishdan kelib chiqadigan vazifalar - abituriyentlar turli yo‘nalishlarda bilimlarga ega bo‘lganliklarini o‘zlarining ijro mahoratini namoyish etishlaridan iboratdir. Alohida e‘tibor professional darajali ijroni mukammallashtirishga, uni yuqori badiiy saviyada ko‘rsatib berishga qaratilishi kerak. “Torli cholg‘ular ijrochiligi” fani yuzasidan abituriyent davr talabiga binoan dunyoqarashi keng bo‘lgan, ya‘ni insoniyat madaniyati tarixi, rivojlanish pog‘onalari xususan, adabiyot va san‘at sohasida teran fikr yuritish bilan birga, yangi paydo bo‘lgan kompyuterlar tizimidagi jahon musiqiy dasturlari yuzasidan ham tushuncha, tasavvur, bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi shart.

Abituriyent bilimiga qo‘yiladigan talablar

“5150702 – Cholg‘u ijrochiligi: torli cholg‘ular (skripka, alt),” “5150703 – Cholg‘u ijrochiligi: torli cholg‘ular (violonchel, contrabass)” ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘qishga kirayotgan abituriyentlarni saralash maqsadida sinfda kirish talablariga mos dasturlarni ijro ztib berishi ko‘zda tutilgan.

O‘qishga kiruvchi 30 daqiqagacha bo‘lgan vaqt mobaynida ijro dasturini ijro etib berishi, 15 daqiqagacha vaqt mobaynida kollokvium topshirishi talab etiladi.

“Orkestr cholg‘ulari (torli cholg‘ular)” sohasi bo‘yicha o‘qishga kiruvchi quyidagi bo‘limlardan iborat tanlovli imtihon topshiradi:

1. Cholg‘uda ijro dasturi;
2. Kollokvium.

Cholg‘uda ijro dasturi

“5150702 – Cholg‘u ijrochiligi: torli cholg‘ular (skripka, alt),” “5150703 – Cholg‘u ijrochiligi: torli cholg‘ular (violonchel, contrabass)” ta‘lim yo‘nalishlariga

ariza topshirgan barcha abituriyentlar belgilangan ro'yxat asosida, yakka tarzda, tayyorlangan dasturni fortepiano jo'rligida yoddan ijro etishadi.

Abituriyent asarlar nota matnini xatosiz, asarning sur'atini ko'rsatilgan tezlikda, ijro shtrixlarini to'g'ri qo'llagan holda, intonatsiya sofligiga amal qilib, barcha artikulyatsiya talablarini bajarib, shuningdek, pozitsiya va applikatorani to'g'ri qo'llagan holda, asarni badiiy mohiyati va milliy xususiyatlarini to'liq ochib bergan holatda ijro etib berishi zarur. Asarda musiqiy ifoda vositalarining qo'llanishi, tovush kuchi va uni boshqarish, hamda uning sifati asosiy ahamiyatga ega.

SKRIPKA

- komissiya talabiga muvofiq bitta gamma (major va minor)
- turli texnik vositasida ijro etiladigan bitta etyud
- turli kayfiyatdagi kichik shakldagi bitta asar (serxarakat).
- I.S.Baxning sonata va partitalaridan turli kayfiyatdagi ikki qism.
- Kontsert asarining birinchi yoki ikkinchi va uchinchi qismlari.

ALT

- bitta gamma (major yoki minor)
- turli texnik vositasida ijro etiladigan bitta etyud
- turli kayfiyatdagi kichik shakldagi bitta asar (serxarakat)
- I.S. Baxning violonchel uchun syuitalaridan yoki skripka uchun sonata va partitalaridan alt uchun ko'chirilgan turli tom'dagi (cokin va serxarakat) ikki qism.
- Alt uchun yaratilgan sonatadan turli temadagi ikki qism yoki kontsert asaridan I – yoki II – va III qismlar.

VIOLONCHEL

- bittagamma (major va minor)
- turli texnik vositada ijro etiladigan bitta etyud
- turli kayfiyatdagi kichik shakldagi bitta asar
- kontsert shaklidagi asarning I – yoki II va III qismlari
- I.S.Baxning syuitalaridan turli kayfiyatdagi ikki qism.

KONTRABAS

- gamma (sokin tempda)
- turli texnik vositada ijro etiladigan bitta etyud
- kichik shakldagi bir asar
- sonata yoki kontsert shakldagi asarning I yoki II - III qismlari.

Kollokvium

Kollokvium savol-javoblari:

- ijro dasturiga oid savollar: (asarning shakl jihatidan tahlili, muallifi, yaratilgan davri va ijro yo'nalishi, ijroning badiiy xususiyatlari v.h);
- o'rta maxsus ta'limning umumiy kursi darajasida elementar musiqa nazariyasi, cholg'ushunoslik, musiqa adabiyotidan bilimlarni;
- shakl va garmoniya nuqtai nazaridan kichik hajmdagi - sonatina, romans, kuy va b. asarlarni tahlil qilish qobiliyati kabilarni o'z ichiga oladi;

Shuningdek, kollokviumda abituriyentning musiqa san'ati va boshqa san'at turlaridan, o'zbek va chet el musiqasida ma'lum va mashhur asarlar, zamonaviy an'analar haqidagi bilim darajasi qanday ekanligi bilib olinadi.

Ijodiy imtihon abituriyent tomonidan bajariladigan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:

1. cholg'uda ijro dasturi

№	Ijro talablari	To'liq javob uchun ball
1.	Asar nota matnining to'g'riligi	12.0
2.	Tovush sifati va uni boshqarish	12.0
3.	Applikaturaning qo'llanishi	12.0
4.	Sahna madaniyati	12.0
5.	Artikulyatsiya talblarining bajarilishi	12.0
6.	Musiqiy ifoda vositalarining to'g'ri qo'llanishi	12.0
7.	Shtrix va dinamik belgilarning ishlatilishi	12.0
8.	Intonatsiya sofligi	12.0
9.	Asar xususiyatini ochib berilishi	12.0
10.	Sur'atning to'g'ri tanlanishi	12.0

Ijro dasturi bo'yicha to'plash mumkin bo'lgan maksimal ball – **120,0 ball**

1. Kollokvium

№	Savollar mazmuni	To'liq javob uchun ball
1.	Asarga oid savollar	6,9
2.	Musiqiy cholg'ular bo'yicha savollar	6,9
3.	Musiqa adabiyoti bo'yicha savollar	6,9
4.	Asarning shakl nuqtai nazaridan tahlili	6,9
5.	Torli cholg'ular ijrochilik san'ati tarixidan	6,9

Kollokvium bo'yicha to'plash mumkin bo'lgan maksimal ball – **34,5 ball**

Bu ishlarni baholash quyidagi tartibda amalga oshiriladi: cholg'uda ijro dasturi – **120,0 ball**, kollokvium – **34,5 ball**.

“Torli cholg'ular ijrochiligi” fani uchun qo'yiladigan maksimal ball – **154,5 ball**

**“GARMONIYA”
fanidan**

Fanning maqsadi va vazifalari

“Garmoniya” fanidan sinovlar dasturining asosiy maqsadi - abituriyentlarning “Garmoniya” fanidan nazariy bilim doirasi, amaliy ko'nikmalarining shakllanganligi qay darajada ekanligini aniqlashdan iborat.

Abiturientlar oldiga quyidagi vazifalar qo'yiladi:

- klassik garmoniyaning nazariy qonuniyatlarini bilish;
- nazariy bilimlarni fortepianoda ijro etish orqali namoyon etish;

garmonik tushunchalarini qo'llash orqali Davriya shaklida I darajali turdosh tonallikka modulyatsiyani fortepianoda ijro etish, diatonik yoki xromatik sekvensiyalarni ijro etish.

Abiturient bilimiga qo'yiladigan talablar

Abiturient "Garmoniya" fanidan o'quv dasturi doirasida to'laqonli bilimga ega bo'lgan holda og'zaki mashqlarni xatosiz bajarganda, garmonik qonuniyatlarni yechimini fortepianoda erkin namoyon etganda, taxlil jarayonida garmonik nazariy va amaliy ko'nikmalarini namoyish qilganda, shuningdek, fan bo'yicha bilimlari yuqori badiiy darajada bo'lganida qo'yiladi. Talabning garmonik eshitish qobiliyati, garmonik tuzilmalarni fortepianoda ijro etish mahoragi yorqin namoyon bo'lishi kerak.

Kasbiy (ijodiy) imtixonda abiturient tomonidan bajarilgan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:

OG'ZAKI SAVOL-JAVOB

1. Davriya shaklida I darajali turdosh tonallikka modulyatsiyalarni fortepianoda ijro etish.
2. Diatonik yoki xromatik sekvensiyalarni ijro etish.

BAHOLASH MEZONI:

OG'ZAKI

№	Savollar mazmuni	To'liq javob uchun ball
1.	Davriya shaklida I darajali turdosh tonallikka modulyatsiyani fortepianoda ijro etish.	20
2.	Diatonik yoki xromatik sekvensiyalarni ijro etish.	11,5
Jami		31,5

Garmoniya fani uchun qo'yiladigan maksimal ball – **31,5** ball.

Mazkur ta'lim yo'nalishida kasbiy (ijodiy) imtihonlarga jami qo'yiladigan maksimal ball – 186,0 ball.

Ijodiy imtihonni o‘tkazish tartibi

“5150702 – Cholg‘u ijrochiligi: torli cholg‘ular (skripka, alt),” “5150703 – Cholg‘u ijrochiligi: torli cholg‘ular (violonchel, contrabass)” ta’lim yo‘nalishiga hujjat topshirgan abituriyent jadval asosida oldindan belgilangan muddatlarda Toshkent shahridagi O‘zbekiston davlat konservatoriyasi binosida ijodiy imtihon topshiradi. Imtihonlar yakka tartibda Qabul komissiyasi tomonidan belgilangan auditoriyalarda o‘tkaziladi.

Ijodiy ishni qabul qiladigan komissiya abituriyentdan ijro dasturi bo‘yicha imtihonni qabul qilib oladi, kollokvium o‘tkazadi.

Appelyatsiya tartibi

Abituriyentlar tomonidan kasbiy (ijodiy) imtixon natijalari bo'yicha konservatoriya qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishlash hay'atiga natijalar e'lon qilingandan kundan boshlab 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin. Murojaat mazmunida faqat o'zining ballari haqida bo'lsa qabul qilinadi, lekin boshqa abituriyentlar haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.